Qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishni takomillashtirish.....	1047
<b>Sherqulov Nodir Erkin o'g'li</b>	
Мировой опыт использования денежных и натуральных трансфертов в социальном обеспечении.....	1052
<b>Гулноза Тохировна Самиева</b>	
Davlat xaridlarini amalga oshirish orqali raqobatni rivojlantirish yo'llari.....	1057
<b>Majidov Nizomjon</b>	
Raqamli iqtisodiyot davrida kontent marketingdan foydalanish va uning bosqichlari.....	1064
<b>Tohirjonov Ahmadjon Tohirjon o'g'li, Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlari kapitalini shakllantirish manbalari va usullarini takomillashtirish.....	1070
<b>Norqulov Mirsaid Tulqin o'g'li</b>	
Qishloq xo'jaligi sohasida investitsion jozibadorlikni oshirish zaruriyati.....	1075
<b>Badalov Jamshid Jamolovich</b>	
Foyda solig'i tushumi va uning O'zbekiston soliq-budjet tizimidagi ahamiyati.....	1080
<b>Shirinov Sabir Erkinovich</b>	
O'zbekistonda davlat korxonalari aksiyalarini moliya bozorlarida sotishni jadallashtirish yo'nalishlari.....	1084
<b>Anvar Eshmatov</b>	
Baliqchilik xo'jaliklarida xodimlar bilan hisob-kitoblar hisobining tashkiliy va uslubiy jihatlarini.....	1088
<b>Ametova Nasiba Danilovna</b>	
Tijorat banklari tomonidan eksportyor korxonalarining kreditlash amaliyotini takomillashtirish.....	1092
<b>Bayjanova Gozzal Sarsengaliyevna</b>	
Digital Transformation of Tax Systems.....	1096
<b>Boburjon Turanboyev Qodirjon o'g'li, Musabekov Sherali Nazarali o'g'li</b>	
Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
<b>Raxmonova Aziza Tolibovna</b>	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
<b>Umarov Elshod G'ulom o'g'li</b>	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
<b>Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li</b>	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
<b>Икромовна Ханифа Одилловна</b>	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
<b>Kamalova Jamila</b>	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
<b>Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li</b>	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
<b>Ne'matov Oybek Ismatullayevich</b>	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
<b>Туйчиев Комилжон Лазизович</b>	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
<b>O'ktamova Nozima Narzulla qizi</b>	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
<b>Umarov Abdulquddus Abdilxatovich</b>	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
<b>Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович</b>	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
<b>Усманова Дилфузахон Иброхимовна</b>	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
<b>Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li</b>	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
<b>Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich</b>	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari .....	1174
<b>Qilichev Umid Ibadullayevich</b>	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari .....	1181
<b>Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
<b>Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li</b>	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
<b>Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Islom iqtisodiyotining mohiyati .....	1197
<b>Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li</b>	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
<b>G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
<b>Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li</b>	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
<b>Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы</b>	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
<b>Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna</b>	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili .....	1222
<b>Nematov Inatillo Ubaydullayevich</b>	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish .....	1228
<b>Umurzakova Adiba Ochilovna</b>	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari .....	1232
<b>Raxmanov Ilxom Xurramovich</b>	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
<b>Пулатова Сурайё Юлдашевна</b>	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
<b>Рафиева Зарина Хусановна</b>	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
<b>Akhmedov Doniyorbek</b>	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
<b>Azizova Manzura Ibragimovna</b>	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
<b>Dilfuza Baxramovna Safarova</b>	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari .....	1261
<b>Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari .....	1266
<b>Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna</b>	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati .....	1272
<b>Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li</b>	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
<b>Ibragimov Gafurjan Axmetovich</b>	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi .....	1282
<b>Ibragimov Mansur Axmedovich</b>	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida) .....	1286
<b>Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich</b>	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами .....	1294
<b>Мансурова Севара Мансуровна</b>	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
<b>Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna</b>	



# SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY- AMALIY ASOSLARI

**Xursandov Komiljon Maxmatkulovich**

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Iqtisodiyot fakulteti dekan o'rinbosari

**Annotatsiya:** Maqolada sanoat korxonalari samaradorligini yanada oshirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar tahlil qilinadi va ularga yechimlar beriladi. Jahondagi bir nechta sanoat korxonalari tuzilmalari tahlil qilinadi va ularning asosiy belgilari e'tirof etiladi. Strategik maqsadlar aniqlanadi hamda ularning kutilayotgan natijalari o'rganilib chiqiladi. Maqola muallif tomonidan yaratilgan bir qancha jadvallarni o'z ichiga oladi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, sanoat, korxona, samaradorlik, mamlakat, resurs, mehnat, muammo yechim, barqarorlik, ishlab chiqarish, raqobatbardosh, tadbirkorlik, ish haqi, rivojlantirish.

**Abstract:** The article analyzes the problems that prevent industrial enterprises from further increasing their efficiency and suggests ways to solve them. The structures of a number of industrial enterprises in the world are analyzed and their main features are identified. Strategic goals are defined and their expected results are studied. The article contains several tables created by the author.

**Key words:** globalization, industry, enterprise, efficiency, country, resource, labor, problem, solution, stability, production, competitiveness, entrepreneurship, salary, development.

**Аннотация:** В статье анализируются проблемы, которые мешают промышленным предприятиям в дальнейшем повышать свою эффективность, и предлагаются пути их решения. Проанализированы структуры ряда промышленных предприятий мира и выявлены их основные особенности. Определяются стратегические цели и изучаются их ожидаемые результаты. Статья содержит несколько таблиц, созданных автором.

**Ключевые слова:** глобализация, промышленность, предприятие, эффективность, страна, ресурс, труд, проблема, решение, стабильность, производство, конкурентоспособность, предпринимательство, зарплата, развитие.

## KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarida mamlakatlar mintaqalarini izchil ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ahamiyati, shu bilan birga, mintaq sanoat korxonalarining samaradorligini qo'shimcha qiymat zanjirini takomillashtirish asosida oshirish tobora ortib bormoqda. Rivojlangan va taraqqiy etayotgan davlatlarning yirik mintaqaviy markazlari hissasiga jahon YIMning 75 foizi, eksportning 58 foizi, investitsiyalarning 76 foizi to'g'ri kelmoqda<sup>1</sup>. Bu esa mintaqalardan iqtisodiy tizimni yanada samarali rivojlantirish bo'yicha optimal usullarni izlashni talab etmoqda.

Jahon amaliyotida sanoat korxonalarining samaradorligini qo'shimcha qiymat zanjirini takomillashtirish asosida oshirish bo'yicha bir qator muammolarning ilmiy yechimini ta'minlash yuzasidan maqsadli ilmiy izlanishlar tashkil qilingan bo'lib, jumladan, mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya va diversifikatsiya qilish, mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish, izchil iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash, bu jarayonni optimal boshqarish va tartibga solishni takomillashtirish, sohaning iqtisodiy rivojlanishini prognozlashning usullarini va ularni tatbiq etishning asosiy prinsiplarini ishlab chiqish, mintaq iqtisodiy tizimini ustuvor yo'nalishlarini optimal tartibga solishni ko'p omilli iqtisodiy matematik modellari ishlab chiqish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bozor munosabatlari sharoitida mamlakat yoki bir nechta mamlakatning ko'p yoki kam bir xildagi tabiiy sharoitga ega bo'lgan moddiy va ijtimoiy texnik ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmalar kompleksi hamda ijt-

<sup>1</sup> Yevropa Ittifoqi, NAFTA va ATEs tarkibiga kiruvchi mintaqalar ulushi. Manba: 2020-yil uchun Jahon banki ma'lumotlari. Elektron manba: // databank.worldbank.org (manbadan foydalanigan sana: 07.11.2020-y).



mo'yi siyosiy sharoitining o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi ma'lum mintaqalar qo'shilmasi sifatidagi tushuncha tarzida keng tarqalgan. Bu yerda mintaqaning iqtisodiy tizimiga urg'u berilmagan, bizning nazarimizda, bu jiddiy kamchilik hisoblanadi:

- sanoat korxonalari samaradorligini oshirishning quyidagi tamoyillariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq;
- sanoat korxonalarining balanslashgan strukturasi shakllanishi uchun sharoitlar yaratish;
- mineral xom ashyo resurslariga boy mintaqalarda xom ashyoni kompleks qayta ishlashdan undan yuqori texnologiyalarni joriy etish asosida yangi mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo'lgan sikllarni o'z ichiga oluvchi investitsion loyihalarni amalga oshirish;
- tarmoqni kompleks rivojlantirish sharoitida sanoat korxonalari samaradorligini oshirish;
- respublikaning ko'pgina mintaqalari qishloq xo'jaligiga ixtisoslashganligi mavjud ishlab chiqarish kuchlarini va zamonaviy texnologiyalardan foydalanib ishlovchi yangi qayta ishlab chiqaruvchi korxonalar sonini ko'paytirishni ko'zlaydi.


Mamlakat iqtisodiyoti uchta asosiy tamoyil foydalanishga asoslanishi kerak: birinchidan, mintaq aholisi talablarini shakllanayotgan bozorlarning ahvoli va dinamikasini, davlat va alohida ishlab chiqarish subyektlari talablarini sinchiklab hisoblay olish; ikkinchidan, mintaqalar ichki va tashqi omillarga iqtisodiyot strukturalariga maksimal darajada muvofiqlashish uchun sharoit yaratish; uchinchidan, mintaq manfaatlarini faol to'la qondirish.

Shu bilan bir qatorda, maqsadli dasturlar mamlakatning tizimli va kompleks rivojlanishlari mintaq iqtisodiyotining eng zarur muammolarini hal qilish uchun amaliy natija beradigan mexanizm ham hisoblanadi. Ular mintaq iqtisodiy jarayonlarini oqilona boshqarish asosida samaradorli va uzoq muddatli mintaq iqtisodiy siyosatini ta'minlashning o'zgaruvchan vositalarini o'zlarida aks ettiradilar. Ularning mintaq rivojlanish dasturining strategik maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va boshqarishni optimal tartibga solish sifatini oshirish;
- mintaqaning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarini rivojlantirish;
- maqbul ekologik vaziyatga erishish;
- raqobatbardoshligini oshirish;
- ijtimoiy sohadagi muammolarni hal qilish uchun sharoit yaratish maqsadlarida iqtisodiyot strukturalarini sifatli transformatsiyalash uchun mintaq iqtisodiy resurslarini konsentratsiyalash.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish yo'nalishlaridan biri tarmoqda mavjud xom ashyodan samarali foydalanish hisoblanadi. Xom ashyo – qazib olish yoki ishlab chiqarish uchun ma'lum darajada mehnat sarflangan va shu mehnat natijasida ma'lum qadar o'zgargan mehnat buyumiga aytiladi. Xom ashyo asosiy va yordamchi materiallarga bo'linadi<sup>2</sup>. Asosiy xom ashyo – tayyor mahsulotning moddiy asosini tashkil qiluvchi mehnat buyumidir. Tayyor mahsulot tarkibiga kiruvchi yoki asosiy xom ashyoni qayta ishlashga zarur sharoit yaratib beruvchi qolgan barcha mehnat buyumlari yordamchi materiallar hisoblanadi.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish resurs tejamliligini oshirish va ulardan to'liq foydalanish bilan bog'liq.



1-rasm: Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bilan bog'liq muammolar

2 Ortiqov.A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik.-T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2018. -215 b.



Sanoat korxonalarida mavjud ishlab chiqarish quvvatidan to'liq foydalana olmaslik asosiy muammo hisoblanadi. Bu muammolarni bartaraf etish mavjud resurslardan foydalanish darajasini oshirish va sanoat korxonalarini samarali faoliyatini yuritishini ta'minlash muhim hisoblanadi. Sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar rejasi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

1. Sanoat korxonalarining ichki va tashqi imkoniyatlarini aniqlash;
2. Mavjud imkoniyatlardan foydalanish darajasini aniqlash;
3. Korxonalarining resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
4. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni amalga oshirish.

Shuningdek, mintaqa sanoat korxonalarini samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator muammolar ham mavjud bo'lib, ular sanoat korxonalarining faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar bilan bog'langan (1-rasmda).

Sanoat korxonalarining ichki imkoniyatlaridan foydalanish darajasi  $y_{pred} \leq 0,25$  bo'lganda, korxona o'z faoliyatini davom ettira olmaydi. Ichki imkoniyatlaridan foydalanish darajasi  $y_{pred} = 0,75 - 10$  ga teng bo'lganda, korxonaning faoliyati yuqori barqarorlik darajasi, foydaning o'sib borishi, xarajatlarning optimalligi va faoliyat samaradorligining maksimal ko'rsatkichlarini ifodalaydi (1-jadval).

1-jadval: Sanoat korxonalarining ichki imkoniyatlaridan foydalanish darajasi holatlarining asosiy belgilari<sup>3</sup>

Qiymati	Holatlarining asosiy belgilari
0,75-1,0	korxonada ichki imkoniyatlardan foydalanishning yuqori darajasi; korxonadagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatning barqarorligi; ishlab chiqarishning minimal darajadagi qo'shimcha xarajatlari; oxirgi mahsulotni ishlab chiqarishgacha bo'lgan minimal yo'qotishlar; yuqori darajadagi foyda.
0,5-0,75	ishlab chiqarishda qo'shimcha xarajatlarning o'sishi va yo'qotishlarning mavjud bo'lishi; ichki imkoniyatlardan foydalanishning o'rtacha darajasi; korxonaning raqobatbardoshligi; mahsulotning sifat ko'rsatkichlarini ta'minlashda barqarorlikning o'rtacha darajasi; iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat barqarorligining o'rtacha darajasi.
0,25-0,5	ishlab chiqarishda xarajatlar ko'payishi va yo'qotishlarning bo'lishi; korxonada ichki imkoniyatlardan foydalanishning past darajasi; korxonaning raqobatbardoshlik darajasi pastligi; mahsulot sifat ko'rsatkichlarining past darajasi; iqtisodiy va ijtimoiy vaziyat barqarorligining past darajasi.

$y_{pred} \geq 0,5$  bo'lganda, korxonalar o'z ichki imkoniyatlaridan samarali foydalanishda investitsiyalar kiritish, texnologiyalarni takomillashtirish, mahsulot sifatini nazorat qilish, mahsulotning foydalilik darajasini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Yuqoridagi uslubiyot bo'yicha mamlakatimiz hududlaridagi sanoat korxonalarida ichki imkoniyatlardan foydalanishni baholash korxonalarda ichki zaxiralar va omillardan foydalanish bo'yicha kerakli xulosalar chiqarish, ularni samarali sarflash bo'yicha qarorlar qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Sanoat korxonalarida ichki imkoniyatlardan samarali foydalanishning sanoat tarmoqlari rivojlanishiga ta'sirini o'rganish, ularni iqtisodiy asoslash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qiladi va quyidagilarni amalga oshirishni talab etadi:

- sanoat korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish jarayonida uy xo'jaliklarining ichki imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish;
- aholini ish bilan taminlanlash, uning nafaol qismini ishlab chiqarish faoliyatiga jalb etish va shu asosida aholi daromadlarini oshirib, turmush darajasini yaxshilash;
- bevosita sanoat korxonalarida mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan xodimlar bilan bir qatorda kasanachilik bilan band bo'lgan aholining ham ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish;
- kasanachilik mehnatidan foydalanib, butlovchi qismlar, tayyor mahsulotlarning ayrim turlarini ishlab chiqarish va xizmatlarni tashkil qilish evaziga yirik sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish.

A. Dubinovskiy charm mahsulotlari ishlab chiqarish samradorligini oshirishning ballik baholash tizimini ishlab chiqqan (2-jadval).

3 Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

2-jadval: Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari raqobatbardoshligini oshirish chora-tadbirlari<sup>4</sup>

№	Chora-tadbir nomi	Reyting bali
1.	Korxonalarga ilmiy-texnik firmalar xizmat ko'rsatishi usuliga o'tish	3,2
2.	Mamlakatda investitsion iqlimni tubdan yaxshilash	4,0
3.	Korxonalarni yuksak malakali kadrlar bilan to'ldirish	4,5
4.	Davlatning proteksionizm siyosati	5,0
5.	Xorij firmalari bilan qo'shma korxonalar yaratish	5,4
6.	Ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish	6,0
7.	Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda zarur bo'lgan yordamchi materiallarni mahalliy lashtirish darajasini oshirish	6,1
8.	Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan kimyoviy materiallar sifatini oshirish ular bilan ta'minlovchi alohida xizmat ko'rsatish firmalarini ochish	6,2
9.	Korxonalarning mahsulotlari ishlab chiqarish va poyabzal sotish bo'yicha xorijiy savdo uylarini tashkil etish	6,5
10.	Korxona imidjini shakllantirish	7,5

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, A. Dubinovskiy mahsulotlar ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlash imkonini beradigan muhim ko'rsatkichlar tizimi asosida ballik baholash tartibini ishlab chiqqan. Ammo A. Dubinovskiy inflyatsiya, devalvatsiya, import bilan bog'liq bo'lgan ko'rsatkichlarni baholash tizimiga kiritmagan.

Sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni taklif etamiz:

- sanoat korxonalarida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish;
- sanoat korxonalarining mahsulotlarini bozordagi ulushini oshirish lozim;
- kuzatuvlar va statistik ma'lumotlar asosida sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning doimiy tahlilini olib borish zarur;
- sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarishning barqarorligi va davomiyligini ta'minlash kerak;
- sanoat korxonalarida ishchilar kasbiy mahoratini oshirish zarur;
- sanoat korxonalariga kiritiladigan investitsiyalar hajmini ko'paytirish lozim;
- sanoat korxonalarida innovatsion mahsulotlarning ulushini oshirish kerak;
- axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga keng joriy etish lozim va boshqalar.

O. G. Tashiyanning fikriga ko'ra, muayyan mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishning maqsadga muvofiq yoki yo'qligi to'g'risidagi savolni yechish uchun o'sha mahsulot raqobatbardoshligi ko'rsatkichlarini e'tiborga olishning o'zi yetarli emas, shuningdek, korxona o'z moliyaviy holatini ham hisobga olishi kerak<sup>5</sup>. Korxonaning moliyaviy holatini esa quyidagilar xarakterlaydi:

- tadbirkorlik faoliyati ko'rsatkichlari;
- tadbirkorlik faoliyati moliyaviy natijalarining narxlar va xarajatlar tarkibining o'zgarishiga ta'sirchanligi;
- tadbirkorlik faoliyati rentabelligi;
- eng yuqori foyda olish darajasi.

Bunda boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishda bo'lgani kabi charm ishlab chiqaruvchilar uchun quyidagi asosiy savollarga javob olish muhim ahamiyatga ega:

- muayyan foyda olish uchun qancha hajmdagi mahsulotni va qanday narxda sotish kerak;
- daromad va xarajatlar nisbati qanday;
- tijorat faoliyatidagi moliyaviy va tadbirkorlik riski qay darajada.

4 Дубиновский А. М. Стратегия развития предприятий кожевенной промышленности. Авторе. дисс. на соиск. уч. ст. к.э.н. – Нижний Новгород, 2016. – 23 с.

5 Основы маркетинга. Учебное пособие. Институт маркетинга. Международная бизнес-школа. MIM-R 005 306 001 X, с.58-59.



Sanoat sohasida tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sohada oilaviy tadbirkorlikni yo'lga qo'yish hisoblanadi. Sanoat sohasida oilaviy tadbirkorlikning yo'lga qo'yilishi sanoatdagi mehnat jarayonlarining mazmuni o'zgarishiga olib keladi. Sanoat sohasidagi oilaviy tadbirkorlikda ish vaqti aniq belgilab berilmaydi, oila a'zolari kunning istalgan vaqtida ishlashi yoki dam olishi mumkin. Oilaviy biznesda ishlovchilar soni chegarasi yoki oiladagi ishlovchilar yoshini belgilab bo'lmaydi. Sanoat sohasida oilaviy biznes rivojlanishi bilan ish haqining mazmuni ham o'zgaradi. Oilaviy biznesda faoliyat yurituvchilar oylik maosh olmasdan, oilaning umumiy daromadidan foydalanadi. Shuningdek, oilaviy biznes sanoatni rivojlantirish uchun aholining pul mablag'larini jalb etishning muhim omili hisoblanadi.

Sanoat tarmoqlarini ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish asosida rivojlantirishda mehnat unumdorligi va ish haqi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligi va ish haqi o'rtasidagi bog'liqlik to'g'risidagi nazariyalar turli ilmiy maktablar namoyandalari tomonidan o'rganilgan. Bu to'g'risida ko'pchilik olimlar "har kim o'z qilgan mehnatiga yarasha rag'batlantirilishi zarur", deb hisoblaydi. T. Edison boshchiligidagi bir guruh olimlar ish haqi mehnatning aqliy yoki ijodiy faoliyat bilan bog'liqligiga asoslanishi lozim degan fikrni ilgari surganlar. A. Marshall mehnatga haq to'lash mehnatning cheklangan unumdorligi prinsipi asosida yo'lga qo'yilishi lozim, deb hisoblaydi. Ular ba'zi qiyin mehnat turlari uchun ish haqi to'lashda ishlab chiqarish natijalarini inobatga olib bo'lmashligini aytadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Muxtasar qilib aytganda, sanoat korxonalari samaradorligini oshirish bo'yicha xom ashyoning ahamiyatlilik va xarajatlarning minimal qiymatini aniq hisob-kitoblar asosida aniqlab, resurslardan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqish mintaqa sanoat korxonalarining samaradorligi oshishini imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyalarini yangilashda texnologiyalarni almashtirishning afzallik ko'rsatkichi va mutaxassislar fikri kelishuvchanligi yoki konkordatsiya koeffitsiyentini hisoblab chiqilishi mintaqa sanoat korxonalarida ishlab chiqarish texnologiyalarini samarali almashtirish, sanoat korxonalarida innovatsion guruhlar tashkil etilib, uning asosida sanoat korxonalarini rivojlantirish tadbirlari olib borilsa, sanoat korxonalarini rivojlantirish imkoniyatlari oshadi va ularda mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llarini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yevropa Ittifoqi, NAFTA va ATEs tarkibiga kiruvchi mintaqalar ulushi. Manba: 2020-yil uchun Jahon banki ma'lumotlari. Elektron manba: // [databank.worldbank.org](http://databank.worldbank.org) (manbadan foydalanigan sana: 07.11.2020-y).
2. Ortiqov.A. Sanoat iqtisodiyoti. Darslik. – T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2018. – 215 b.
3. Sodiqov A. O'zbekistonda sanoat rivojlanishining tendensiya va istiqbollari. "Sanoat tarmoqlarining innovatsion rivojlanihi: muammo va yechimlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. I jild. –T., 2013. 10-b.
4. Chang H. J., Lin J. Should Industrial Policy in Developing Countries conform Comparative Advantage or Defy it? A debate between Justin Lin and Ha-Joon Chang // Development Policy Review. 2009. No. 27(5).
5. UNIDO. Industrial Development Report 2018. Demand for Manufacturing: Driving Inclusive and Sustainable Industrial Development. Vienna, Austria. –2017. p. 201-205.
6. [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O'zbekiston Respublikasi hukumatining rasmiy sayti.
7. <http://www.stat.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
8. [http:// www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari rasmiy bazasi.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

# Yashil

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.